


## II. SANOAT

### Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2022 yil yanvar-dekabr)



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 17 794,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2195,7 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 12,3 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 87,8 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirdorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1548,9 mlrd. so‘m miqdorida (8,7 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 15 398,2 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,5 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 2 122,8 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 11,9 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 120,7 mlrd. so‘m (0,7 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 152,9 mlrd. so‘m (0,9 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 11,9 foizni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi  
va o'sish sur'ati**



**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	mlrd. so‘m		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	2021 y.	2022 y.		2021 y.	2022 y.

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

**16630,4      17794,6      100,6      100,0      100,0**

*iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:*

<b>Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>161,7</b>	<b>152,9</b>	<b>78,2</b>	<b>1,0</b>	<b>0,9</b>
---	--------------	--------------	-------------	------------	------------

*ulardan:*

Tog‘-kon sanoatining boshqa sohalari	105,4	124,0	93,1	0,6	0,7
--------------------------------------	-------	-------	------	-----	-----

Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko‘rsatish	56,3	28,9	40,7	0,4	0,2
--	------	------	------	-----	-----

<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>14268,6</b>	<b>15398,2</b>	<b>100,8</b>	<b>85,8</b>	<b>86,5</b>
------------------------------	----------------	----------------	--------------	-------------	-------------

*undan:*

Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	2 292,7	2 760,5	109,6	13,8	15,5
---	---------	---------	-------	------	------

To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2088,6	2450,5	107,5	12,6	13,8
--	--------	--------	-------	------	------

Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	167,0	217,4	136,9	1,0	1,2
--	-------	-------	-------	-----	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	5,1	14,8	274,3	0,03	0,08
---	-----	------	-------	------	------


	mlrd. soʻm		fizik hajm indeksi, %	davomi	
	2021 y.	2022 y.		jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	2021 y.
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	8834,9	9121,7	98,2	53,1	51,3
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	10,0	19,8	174,2	0,06	0,1
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	39,0	22,6	46,3	0,2	0,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	505,6	600,6	113,6	3,0	3,4
Metallurgiya sanoati	6,3	2,1	31,5	0,04	0,01
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	60,6	72,2	102,7	0,4	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	98,0	-	-	0,6	-
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	80,8	26,8	28,1	0,5	0,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	1,7	1,0	58,0	0,01	0,01
Mashina va uskunalar taʼmirlash va oʼrnatish	11,4	10,8	87,2	0,1	0,1
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	66,9	77,4	89,2	0,4	0,4
<b>Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>2100,8</b>	<b>2122,8</b>	<b>100,5</b>	<b>12,6</b>	<b>11,9</b>
<b>Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʼish va utilizatsiya qilish</b>	<b>99,3</b>	<b>120,7</b>	<b>113,8</b>	<b>0,6</b>	<b>0,7</b>

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizini tashkil etdi.


Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha Tabiiy gaz olish hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 32,6 foizga, gaz kondensati 11,4 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)**

**2021 yil yanvar-dekabr**



**2022 yil yanvar-dekabr**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo‘yicha)**

o‘lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2021 yilga nisbatan, % hisobida
	2021 y.	2022 y.	

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	1947,8	1312,3	67,4
Ohak tosh	ming tn.	171,1	231,1	135,1
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	-	-	-

	o'lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2021 yilga nisbatan %, hisobida	davomi
		2021 y.	2022 y.		
<b>Qayta ishslash sanoati</b>					
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirit</i>	3994,5	3748,4	93,8	
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	125,5	107,2	85,4	
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	42,2	17,6	41,7	
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	232,2	212,6	91,6	
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	3365,3	3864,1	114,8	
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	6565,5	4604,3	70,1	
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	45,4	35,4	78,1	
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	35,9	37,4	104,1	
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	51,0	53,1	104,1	
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	2857,2	2796,3	97,9	
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	<i>ming tn.</i>	184,8	206,1	111,5	
Polietilen	<i>ming tn.</i>	304,9	295,8	97,0	
Polipropilen	<i>ming tn.</i>	87,1	83,7	96,1	
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>					
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	5232,9	5373,6	102,7	
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	62,9	53,4	85,0	

	<i>o‘lchov birligi</i>	<i>yanvar-dekabr oylarida</i>		<i>davomi 2021 yilga nisbatan, % hisobida</i>
		<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>	


**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	<i>mln. so‘m</i>	61544,0	65961,0	107,2
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	<i>mln. so‘m</i>	7385,5	8608,6	116,6

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 398,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 86,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 58,7 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 5,3 foiz va quyi texnologiyali 35,9 foizni tashkil etdi.

**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan guruch 14,8 foizga, porlandtsement 6,4 foizga oshgan bo‘lsa, makaron mahsulotini ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 58,3 foizga, tozalangan paxta yog‘i 33,6 foizga, yumshoq bug,doy va spelta uni 14,6 foizga, bug’doy noni 8,4 foizga, aroq 6,2 foizga, polipropilen 3,9 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 122,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,9 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 120,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 7,2 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 16,6 foizga oshganligi kuzatildi.

### Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 3 319,2 mlrd. so‘mlik iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 109,5 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1902,2 mlrd.so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (114,1 foiz), 234,0 mlrd. so‘mlik vino-aroq mahsulotlari (97,3 foiz) va 1183,0 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 105,1 foiz) ishlab chiqarildi.


### Yanvar-dekabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m		<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	2021 y.	2022 y.	2021 y.	2022 y.
<b>Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish</b>	<b>3032,3</b>	<b>3319,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>


*shu jumladan:*

oziq-ovqat tovarlari	1906,9	2136,2	62,9	64,4
nooziq-ovqat tovarlari	1125,4	1183,0	37,1	35,6

**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish tarkibi,  
jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida**




**Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
(jamiga nisbatan ulishi )**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 53,4%), Taxiatosh (12,2 %), Qo'ng'iroq (5,2 %), To'rtko'l (3,9 %), Amudaryo (3,4 %), Beruniy va Ellikqal'a (2,9%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahri (jami iste'mol tovarlari hajmining 19,7 %), Taxiatosh (11,6 %), Ellikqal'a (10,8 %), To'rtko'l (8,7 %), Amudaryo (8,0 %) va Beruniy (6,9 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi  
(respublika bo'yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)**

25




**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari**

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste‘mol tovarlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>17794,6</b>	<b>100,0</b>	<b>3319,2</b>	<b>100,0</b>
Nukus sh.	9508,8	53,4	652,9	19,7
<b>tumanlar:</b>				
Amudaryo	607,0	3,4	264,2	8,0
Beruniy	512,7	2,9	229,5	6,9
Bo‘zatov	30,2	0,2	19,4	0,6
Qonliko‘l	369,3	2,1	40,6	1,2
Qorao‘zak	383,4	2,2	77,5	2,3
Kegeyli	312,6	1,8	74,5	2,2
Qo‘ng‘irot	923,7	5,2	207,2	6,2
Mo‘ynoq	275,2	1,5	48,8	1,5
Nukus	353,0	2,0	65,5	2,0
Taxiatosh	2178,4	12,2	384,7	11,6
Taxtako‘pir	313,8	1,8	113,1	3,4
To‘rtko‘l	702,9	3,9	288,0	8,7
Xo‘jayli	327,4	1,8	225,8	6,8
Chimboy	293,6	1,6	192,6	5,8
Shumanay	194,3	1,1	76,5	2,3
Ellikqal‘a	508,3	2,9	358,4	10,8

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va  
iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish**

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so'm</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste'mol tovarlari</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>9067,7</b>	<b>1691,4</b>
Nukus sh.	28654,8	1967,5
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	2936,8	1278,3
Beruniy	2572,8	1151,7
Bo'zatov	1383,9	887,6
Qonliko'l	7000,8	768,9
Qorao'zak	7118,2	1438,6
Kegeyli	4230,4	1007,5
Qo'ng'iroq	6910,1	1549,8
Mo'ynoq	8282,0	1469,7
Nukus	6737,1	1249,6
Taxiatosh	28709,1	5069,6
Taxtako'pir	7886,2	2841,6
To'rtdko'l	3154,1	1292,6
Xo'jayli	2588,8	1786,0
Chimboy	2564,2	1682,2
Shumanay	3390,2	1335,4
Ellikqal'a	3059,2	2157,2

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
 sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari,  
*ming so‘mda*



**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar  
va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish**

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 612,1 mlrd. soʻmlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining oʼsishi boʻyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur boʻlgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oʼsishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

**Mahalliylashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari**

	<i>2021 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabr</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	59	44
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	49	26
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.soʻm</i>	1553,9	612,1
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	25,6	12,7
Yaratilgan yangi ish oʼrnlari, <i>birlik</i>	234	88

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 9855,0 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qoʼshma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 55,4 foizni tashkil etdi.